

O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi
ANDIJON DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
Andijon sh., Yu.Atabekov ko‘chasi, 1.



Ministry of Health
of the Republic of Uzbekistan
ANDIJAN STATE
MEDICAL INSTITUTE
1, Yu.Atabekov str., Andijan

Telefon: 74-223-94-57; Faks: 74-223-94-50; e-mail: agmi-361@umail.uz; e-xat: adti@exat.uz

30 yanvar 2025 yil.

01/06-591-son

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b
Sh.A.Boymuradovga

Hurmatli Shuhrat Abdusalilovich!

Andijon davlat tibbiyot instituti rektorati hurmat bilan Sizni va Toshkent tibbiyot akademiyasi professor-o‘qituvchilarini 2025 yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tadigan Andijon davlat tibbiyot instituti tashkil etilganligining 70 yilligiga bag‘ishlangan “Profilaktik tibbiyotda ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etishga taklif etamiz.

Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug‘iga asosan 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi doirasida tashkil etiladi.

Anjumanda akademiya professor-o‘qituvchilari quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zlarining ma’ruza, maqola va tezislari bilan ishtirok etishlari mumkin:

1.Profilaktik tibbiyot: yangi innovatsion texnologiya (barcha mutaxassisliklar bo‘yicha).

2.Kardiovaskulyar va noinfeksion kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi.

3.Onalik va bolalikni himoya qilishning dolzarb muammolari. Akusherlik va ginekologiyada zamonaviy tashxislash, davolash va oldini olish. Bolalar va o‘smirlar kasalliklarini erta tashxislash va davolash.

4.Stomatologiya va yuz-jag‘ jarrohligi dolzarb muammolari.

5.Tibbiy-biologik fanlar nazariyasi va amaliyotiga standartlar, zamonaviy tavsiyalar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etish uchun ma’ruzalarni 2025-yilning 15-fevral kuniga qadar andijanmedical@gmail.com elektron manziliga yuborishingiz so‘raladi.

Tezislarni 2025-yilning 1-mart kuniga qadar andijanmedical@gmail.com elektron manziliga yuborishingiz soʻraladi.

Maqolalarni 2025-yilning 1-mart kuniga qadar nashruzjournals@gmail.com elektron pochta orqali yoki [@nashruzjournals](https://www.instagram.com/nashruzjournals) telegram akkauntiga yuborishingiz soʻraladi.

Axborot xati ilova qilinadi.

**Hurmat bilan,
institut rektori**



M.M.Madazimov

**Sh.Ya.Bustanov
+998999052550**